

**X-XII ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA IJOD QILGAN  
TARIXNAVIS OLIMLARNING FAOLIYATI VA ISLOM TARIXIGA OID  
ASARLARI**

*Abduqodirov Jasurbek*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islom tarixi va manbashunosligi- IRCICA*

*kafedrasi stajyor-o'qituvchisi*

*abduqodirovjasurbek36@gmail.com*

*+998994847576*

VIII-XII asrlar davrida Movarounnahrda katta va muhim o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Aynan shu davrdan boshlab bu tarixiy o'lka butun dunyoga qomusiy olimlarni yetkazib bera boshladi. IX-X asrlarga kelib bu hududlarda mustaqil davlatlar vujudga kela boshladi. Jumladan Somoniylar, Qoraxoniylar, Ma'muniylar, G'aznaviylar va Xorazmshoxlar birin ketin tarix sahnasiga kelib – ketdilar. Lekin shunga qaramay ushbu diyorlarda yetishib chiqqan olimlar shunday madaniy va ma'rifiy ishlar qilishdiki, ular nafaqat Movarounnahrda, balki butun musulmon Sharqi tarixida o'chmas iz qoldirishdi. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlanib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk Uyg'onish davri bo'lgan bo'lsa, bu ikkinchi bor XIV-XV asrlar oralig'ida, Temuriylar hukmronligi davrida qayta takrorlandi. Keyinchalik bunday ma'rifiy o'zgarishlar davom etdi va shu davr oralig'ida juda ko'plab tarixnavis olimlar yetishib chiqib, o'sha davr tarixiy muhitini o'z asarlarida ko'rsatib berishdilar. Undan tashqari movarounnahrlik tarixchi olimlarimiz islom tarixiga oid asarlar yaratish bilan ham mashg'ul bo'ldilar. Ushbu bob qismida X-XVI asrlarda Movarounnahr yurtidan chiqqan qomusiy, tarixnavis olimlarning hayoti va ijodi, ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanishishni maqsad qildik.

Abu Abdulloh Muhammad AL-Xorazmiy. Xorazmiy garchi X asrda yashamagan bo'lsaham, lekin olim birinchi bo'lib tarixiy asarni yaratgan Markaziy

Osiyolik tarixchi sifatida e'tirof etilgani uchun birinchi bo'lib shu kishidan boshlashni ma'qul ko'rdik. Qomusiy olimlardan bo'lib, tarix, geografiya va etnografiya kabi sohalar bilan ham qalam tebratgan buyuk alloma. To'liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al Xorazmiy al Majusiy al-

Qatrobbuliy.<sup>5</sup> 789-yil Xorazmda tavallud topgan va 850-yili vafot etgan. Bizga mashhur bo'lgan “Algebra” so'zi ham olimning “Al- kitob al- muxtasar fi xisob al- jabr va al- muqobala” nomli risolasidan olingan.<sup>6</sup> Biz al- Xorazmiyni birinchi O'rta Osiyolik tarixchi deyishimiz mumkin.<sup>7</sup> Chunki birinchilardan bo'lib tarix asarini yaratgan qomusiy olim hisoblanadi. U faoliyatini kata qismini Bag'doddagi Bayt ul- hikma da o'tkazgan. Mazkur ilm dargohi malum muddat Xorazmiy tomonidan ham boshqarilgan.<sup>8</sup> Xorazmiyning geometriya, geografiya va boshqa sohalarda yozilgan asarlari adadi soni 20ta bo'lib, ulardan faqat 10tasi bizgacha yetib kelgan. Shunita'kidlashimiz lozimki buyuk bobomiz Xorazmiy tarix sohasiga doir “Kitob ut- tarix” (Tarix kitobi) nomli asar ham yozganlar. Asardan faqat ayrim parchalar bizga qadar yetib kelgan bo'lib, asarda arablar va islom tarixiga oid mavzular bitilgan. Jumladan parchalarda:

- Arablar bilan vizantiyaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan urushlar
- Arablarning Eron va O'rta Osiyoga yurishlar
- Xalifalik bilan xazarlar o'rtasidagi munosabatlar
- Xalifalikning ichki ahvoli

Asarning bu qismlari at- Tabariyning “Kitob rasul ul- mulk va al- xulafo” va Ibn al- Asirning (1116-1234) “Tarixi fil komil” asarlarida uchraydi.<sup>9</sup> Xorazmiyning ushbu islom tarixiga oid asari haqida ma'lumot Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul- Boqiya” asarida ham uchratishimiz mumkin.<sup>10</sup>

Bal'amiy. X asrda ijod qilgan buxorolik tarixnavis olim. To'liq ismlari Mir Abu Ali ibn Muhammad Bal'amiydir.<sup>11</sup> Marvga qarashli Bal'amon qishlog'ida tavallud topgan. O'z davrining mashhur tarixnavis olimi bo'lib ko'zga ko'ringan. U mashhur arab tarixchisi Abu Jafar Muhammad ibn Jarir at- Tabariy (839-923)

5 B.Ahmedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.: Cho'lpon,-

2003. B.5.

6 M.M. Xayrullayev Ma'naviyat yulduzlari- T.: 1999. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. B.36.

7 A. Madraimov, G. Fuzailova Manbashunoslik – T.: Fan,-2007. B.61.

8 U. Uvvatov Yurtimiz allomalari- T.: Hilol nashriyot,- 2014. B.196.

9 B. Ahmedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.: Cho'lpon, 2003.- B.6.

10 G.A. Tureeva Tarixiy manbashunoslik- Nukus. 2008.- B.51.

11 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.: Cho'lpon, 2003.- B.7. ning “ Tarix ul- anbiyo va rasul va xulafu”<sup>12</sup> nomli mashhur asarini fors tilida muxtasar qilib qaytadan yozadi. Bu ishni 963-yilda nihoyasiga yetkazadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu asar O'rta Osiyoda fors tilida bitilgan birinchi asar hisoblanadi.<sup>13</sup> Asar olamning yaratilishidan to 912-913 yilgacha Arabiston va xalifalik qo'l oostidagi yerlardagi jarayonlar hamda o'sha davrdagi Movarounnahrda ijtimoiy va siyosiy vaziyatlar haqida hikoya qiladi. Asarning xronologik uslubda yoritilganligi, undan foydalanishni birmuncha osonlashtiradi. Asarning to'la matni 1867-1874-yillarda Parijda fransuz tilida chop etiladi.<sup>14</sup>

Abu Bakr Narshaxiy. Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo'lmish “Tarixiy Buxoro”<sup>15</sup> nomi bilan mashhur bo'lgan asar muallifi. 899-yil Buxoroning Vobkent tumanida tavallud topgan.<sup>16</sup> XIII asr olimi Samoniyning “Kitob ul-ansob” asarida olimning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Jafar ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik tarzida uchraydi va olimning 899-yili tavallud topib 959-yili vafot etganligi ham shu asarda uchraydi.<sup>17</sup> Asarning asli arabcha nusxasi bizgacha yetib kelmagan, uning forsha tarjima va tahrir qilingan nusxalari bizgacha yetib kelgan. Jumladan tarjimon Abu Nasr Ahmad asarni qisqartirish bilan birga unga tarixiy qo'shimchalar kiritadi va bu ishda u ishonchli manbalardan foydalanadi. Aniqrog'i qo'shilgan ma'lumotlarni quydagi asarlardan oladi:

- Abulhasan Abdurrahmon ibn Muhammad Nishopuriy (IX) ning

“Xazoin ul- ilm”

12 Asar Tarixi Tabariy nomi bilan ham mashhur bo'lib, xalifalik hududidagi yerlar, xususan Movarounnahr va Xurosonning 915-yilgacha bo'lgan tarixi haqida malumot beradi..

13 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari-T.:Cho'lpon,2003.-B.7.

14 A.Abdunabiyev Tarix-munavvar ko'zgu"-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2007.-B.8. 15Narshaxiyning o'z kitobiga qanday nom berganligi ma'lum emas. Qo'lyozmalarda uning asari “Tarixi Narshaxiy”, “Taxqiq ul-viloyat”, “ Axbori Buxoro”, “ Tarixi Buxoro” tarzida uchraydi. Ular orasida keng ishlatiladigani va mashhuri Tarixi Buxoro nomidir.

16 A.Abdunabiyev Tarix-munavvar ko'zgu-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2007.-B.9.

17 M.M. Xayrullayev Ma'naviyat yulduzlari- T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1999,B.70.

- Abu Is'hoq Ibrohim ibn al- Abbas as- Suliyning “ Axbori Muqanna”
- Abu Jafar Muhammad at-Tabariyning “Tarixi Tabariy”.18

“Buxoro tarixi” asari islom tarixiga oid asarlardan hisoblanib, unda Buxoro haqidagi ma'lumotlar, Markaziy Osiyoda arab xalifaligining hukmronligi, islom dining tarqalishi,undan tashqari, “oq kiyimlilar” va Muqanna qo'zg'olonlari, Somoniylar davrida davlatning idora qilish usullari haqida tarixiy faktlar yoritiladi. Narshaxiyning ushbu asari keying tarixchilar- farg'onalik Abu Nasr al-Kuboviy tomonidan 1129-yili va Muhammad ibn Zufar tashabbusi bilan ham birmuncha qisqartirilgan va yangi tarixiy voqealar bilan to'ldirilgan.19

"Buxoro tarixi" kitobining tarjimoni va muharriri Abu Nasr Axmad Kuboviy asarning arab tilidan fors tiliga tarjima qilinishi haqida quydagilarni yozgan edi: "...Ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari sababli, do'stlarim mendan u kitobni fors tiliga tarjima qilishni iltimos qilishardi.....522 yilning jumad ul-avval oyida kitobni fors tiliga

tarjima qildim. Birok, arab tilidagi nusxada keraksiz va buning ustiga o'qiganda kishi tabiatiga malollik orttiradigan narsalar haqida ham so'zlangan ekan. U narsalarning bayoni (tarjimaga) kiritilmadi".<sup>20</sup>

Abu Xafs an- Nasafiy. Yana bir movarounnahrlik tarixchi olimlardan biri hisoblanadi. Olim samarqandlik bo'lib, ( 1068 -1142 yillarda yashab ijod etgan qomusiy olim) to'liq ismi Abu Xafs Umar ibn Muhammad an- Nasafiy as-Samarqandiydir. "Najmiddin"( dinning yulduzi) degan laqab ham olgan . Bunga olimning turli ilm sohalarida ko'rsatgan xizmatlari uchundir. <sup>24</sup>Uning tarixga doir "Kitob ul-qand fi tarixi Samarqand"<sup>25</sup> nomli asari mavjud. Asarda Samarqandning qadimgi obidalari, osor-u atiqalari haqida hamda Samarqandlik ulamolarning nasl-nasabi, tarjimai xollari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bizga qadar asarning arabcha nusxasi saqlanmagan, ammo bizga uning imom Abulfazl Muhammad ibn Abdujalil ibn Abdumalik Ali ibn Xaydar tarafidan amalga oshirilgan qisqacha tahriri yetib kelgan.<sup>26</sup> U ko'pinch manbalarda " Qandiyayi xurd" ( Kichik xandiya ) deb nomlanadi. Asar haqida to'xtaladigan bo'lsak, unda Samarqandning islomgacha

22 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.:Cho'lpon,2003.-B.10. 23 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari-T.:Cho'lpon,2003.-B.10. 24 U. Uvvatov Yurtimiz allomalari"- T.: Hilol nashriyot,- 2014.B.85.

<sup>25</sup>Asarning boshqacha nomi "Al-qand fi ma'rifati ulamoi Samarqand- "Samarqand ulamolarining ma'rifati" deb nomlanadi. Manba : Bo'riboy Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari-T.:Cho'lpon,2003.- 26 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari-T.:Cho'lpon,2003.-B.11. bo'lgan tarixi, keyinchalik bu yerlarning arablar tomonidan fath etilish, Samarqandning mashhur ulamolari, sug'orish tizimi va boshqa qiziqarli ma'lumotlar haqida so'z boradi. " Qandiyayi xurd" ning ikta tahriri mavjud bo'lib<sup>27</sup>, uning ruscha tarjimasi ham mavjud bo'lib, tarjima 1906-yili " Справочная книжка Самаркандской области" to'plamining sakkizinchi sonida (236-290- betlari) chop etilgan.

Abu Xafs Nasafiyning tarix sohasida hamda islom tarixi sohasida ham ijod qilganligi va bu sohada talabalarga dars ham o'tganligi bizga malumdir. Jumladan

ushbu mudarris olim masjidlarda va “ Tabg’ochxon ” madrasasida xadis ilmi toliblariga quydagi islom tarixiga oid asarlarni imlo qiladi:

- “ Kitob at- tavorix va –l- ansob” ( Tarix va nasablar kitobi)
- “Tatix al- xulafo al- qoimin bada-l- xulafo ar- roshidin”(Xulafoi roshidindan keyin hukm surgan xalifalar tarixi)
- “Nasab mashoxir aimmat ad- din va tavorixuxum” (Din imomlarida mashxurlarining nasab va tarixlari)<sup>28</sup>

Abulabbos Mustag’firy. Imom Mustag’firy ham tarixchi olimlardan bo’lib (960-1041 yillarda yashab ijod qilgan), to’liq ismi Nasafiy Sanmarqandiy Jafar ibn Abu Ali Muhammad ibn AbuBakr hisoblanadi. Tarixchi, adib, muhaddis va faqih hisoblanib, olim bir qancha vaqt Samarqand, Buxoro, Marv, Nishopur va Saraxsda yashaydi.<sup>29</sup> Olimning tarix va islom tarixiga doir yozgan asarlari quydagilar:

- “Kitob tarixi Samarqand”
- “Kitob daloil an-nubuvva” ( Payg’ambarlik dalillari)
- “Kitob ud-da’vot” ( Targ’ibotlar kitobi)
- “Kitob xutub an- nabiyy” (Payg’ambar xutbalari kitobi)
- “Kitob tibb in nabiyy” (Payg’ambar tibbi kitobi) <sup>30</sup>

<sup>27</sup> V.L.Vyatkin keltirgan ma’lumot

<sup>28</sup> U. Uvvatov Yurtimiz allomalari- T.: Hilol nashriyot,- 2014.B.95.

<sup>29</sup> Sam’oniyning Kitob al- ansobasaridan keltirilgan ma’lumot.

<sup>30</sup> Z. Husniddin tahriri: Islom ensiklopediyasi- T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi,-2004. B.16.

Shu kabi olimning o’ndan ortiq asarlari mavjud. Tarixchi olimning “Kitob daloil an- nubuvva”asari payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ibratli hayot yo’llari, u zotning mo’jizalari va ta’limotlariga bag’ishlanadi. Tarixchi olimning “ Kitob tibb in nabiyy” asari Tehronda nashr etilgan.Undan tashqari manbalarda olim qalamiga mansub yana bir qancha asarlar mavjud bo’lib, “Kitob ma’rifat as-saxobiy” ( sahobiylarni bilish kitobi) kitobi shular jumlasidandir.<sup>31</sup>

Sam’oniy. XII asrda yashagan mashhur tarixchi va qomusiy olim. Olimning

to'liq ismi Abu Said Abdulkarim ibn Muhammad as- Samoniydir.1113-yili yirik qonunshunoslar oilasida tavallud topgan. Taxsil olgan joylari Samarqand, Buxoro va Marv hisoblanadi.<sup>32</sup> Ushbu olimning bir qancha tarixiy asarlari mavjud bo'lib, ular quydagilar:

- “Kitob ul- ansob”<sup>33</sup> ( Nasablar haqida kitob)
- “ Tarixi Marv” . ( Marvning tarixi haqidagi asar. 20 jilddan iborat.)

Sam'oniyning bizgacha yetib kelgan kitobi “ Kitob ul- ansob” asari hisoblanadi. Olim ushbu asarini O'rta Osiyodan to Arabistongacha bo'lgan ko'p yillik sayohat natijasida yozadi.<sup>34</sup>Asar 8 jilddan iborat bo'lib, to'liq nusxasi yo'qolgan, shuning uchun tarixshunos ibn al- Asir (1160-1234) tomonidan tahrir qilingan 3 jildlik muxtasar nusxasi saqlangan xolos.<sup>35</sup> Asarda alifbo tarzida, islomiyatdan to muallif davrigacha bo'lgan vaqt davomida musulmon mamlakatlarida, Movarounnahr va Eron hududida istiqomat qilgan mashhur kishilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari olim asarida O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida ham ma'lumotlar berib ketadi.

Banokatiy. XIII asr oxiri XIV asr birinchi choragida faoliyat yuritgan yirik tarixshunos olim. To'liq ismi Faxruddin Abu Sulaymon Dovud ibn Abulfazl

31 U. Uvvatov Yurtimiz allomalari- T.: Hilol nashriyot,- 2014.B.97.

32 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.:Cho'lpon,2003.-B.12.

33 Yoki Ansobi Sam'oniymansa: A. Irisov, A.Nosirov O', I.Nizomiddinov “ O'rta Osiyolik qirq olim”. – T.: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti,- 1961.B.68.

34 Manba : Qomus info- onlayn ensiklopediya

35 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.:Cho'lpon,2003.-B.12.

Muhammad Banokatiy (1330-yil vafot etgan).<sup>36</sup> Mashhur adabiyotshunos olim Davlatshox Samarqandiy “ Faxruddun Abu Sulaymon Dovud Banokati shoirlikda ham ulug' martabaga ega edi hamda qasidalar va pishiq qit'alar bilgan”,- deb yozadi. Ammo bizga olimning ko'proq tarixshunos olim sifatida nom

qozongani ma'lum. Olimning muhim tarixiy asarlaridan biri "Ravzat ul- i-l-albob fi tavorixal- akobir va -l- ansob"( Akobirlar va asil kishilar tarixi xususida oqillar bog'i) hisoblanadi. Banokatiy ushbu asarni 1317-yil yozib tugatadi. Asar islom tarixiga oid manba bo'lib, u muqaddim va to'qqiz qismdan iborat.

Ravzat ul-i-l-albob fi tavorixi al-akobir va-l-ansob asari haqida. Ushbu manba quydagi islom tarixiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Odam Atodan to Muso (a.s) payg'ambargacha o'tgan davr ichida patriarx va payg'ambarlar haqida
2. Qadimiy Eron podsholari
3. Muhammad (s.a.v) payg'ambarligi, xalifayi roshidin, imomlar, Ummaviylar va Abbosiylar xalifaligi davrlari haqida
4. Abbosiylar bilan xamasr bo'lgan sulolalar, ya'ni Toxiriylar, Safforiylar, Samoniylar, Xorazmshoxlar va boshqalar haqida<sup>37</sup>

Undan tashqari asarda, Armaniston va frank davlatlarining geografik holati,<sup>38</sup> Xindiston tarixi, xindlarning e'tiqodi haqida, Yahudiylarning payg'ambarlari va podshoxlari haqida, Nasroniylarning hukmdorlari va mo'g'illar tarixi haqida ma'lumotlar ham uchraydi. Ravzat ul-i-l-albob fi tavorixi al-akobir va-l-ansob asarini Rashiduddin "Jome ut- Tavorix" ( Tarixlar majmuasi) asarining qisqartirilgan nusxasi deyish ham mumkin. Lekin Banokatiyning asarida "Jome ut- Tavorix" asarida uchramaydigan ma'lumotlar bor. Masalan yeti iqlim tavsifi va shunga o'xshash ma'lumotlar. Asar XVIIasrdan beri tadqiqotchilar nigohida bo'lib

36 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari- T.:Cho'lpon,2003.-B.14. 37 B. Ahamedov O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari-T.:Cho'lpon,2003.-B.14. 38 A. Madraimov, Gavhar Fuzailova Manbashunoslik – T.: Fan,-2007.B.181. kelmoqda. Asar 1677-yil ayrim qismlari lotin tiliga, 1820-yili esa ingliz tiliga hamda fransuz tillariga tarjima qilingan.<sup>39</sup>